

Sana: “ ___ ” _____ 201__-yil. Sinflar: 7-“ _____ ”. O‘qituvchi: _____

MAVZU: Kirish

DARSNING MAQSADI:

- a) ta’limiy:** o‘quvchilarga haqida ma’lumot berish;
- b) tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;
- d) rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) tayanch kompetensiya(lar): TK1, TK2;

b) fanga oid kompetensiya(lar): FK1.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars uslubi: an’anaviy.

Dars jihozlari: darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)	Ajratiladigan vaqt (reglament)
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

DARSNING BORISHI:

Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma’naviyat daqiqasi: O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

Yangi mavzu bayoni: O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

Vatanimiz boy qadimiy tarixga ega. Turon, Turkiston Movarounnahr nomlari bilan shuhrat topgan bu mamlakatning va o‘z mehnati bilan uni obod etgan o‘zbek xalqining o‘tmishi g‘oyat qiziqarli va ibratlidir. Siz ushbu darslikda IV–XV asrlar davomida o‘lkamiz tarixida kechgan voqealar haqida bilib olasiz. Bu tarixiy bosqichda, “o‘zbiy” va “o‘zbek” atamaları bilan ulug‘langan o‘zbek xalqi shakllandi. IV–XV asrlarda dastlab Xorazm, Xioniylar, Kidariylar, Eftallar, Turk xoqonligi, keyinchalik Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur hukmronlik qilgan yirik davlatlar faoliyat ko‘rsatgan.

Ushbu davlatlar mazkur hudud aholisining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti rivojiga ta'sir ko'rsatgan. Ilk o'rta asrlarda *“qishloq hokimi”* deb atalgan katta yer egasi – *“dehqon”*lar va ularning ekinzorlarida ishlovchi yersiz *“kadivar”*lar shakllandi. Yerda ishlash tartiblarining tubdan o'zgarishi aholi o'rtasida tabaqalanishni yanada keskinlashtirgan. VIII asrning boshlariga kelib mamlakatimizda Arab xalifaligi o'rnatildi. O'lkamizga arab madaniyatining ta'siri kuchaydi. Xalifalik hukmronligidan keyingi asrlarda ilm-ma'rifatning rivoji uchun sharoit yuzaga keldi. Yurtimizdan jahon ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan ***Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek va Alisher Navoiy*** kabi buyuk mutafakkirlar yetishib chiqdi. O'rta asrlarda yashab ijod qilgan ***Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Mahmud az-Zamaxshariy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy*** singari mashhur ulamolarning Islom dini va ta'limotiga oid asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosi va

uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va roliga bag'ishlanib **2014-yilning 15–16-may kunlari** Samarqandda xalqaro konferensiya o'tkazildi. Darslikni o'qish jarayonida ona Vatan mudofaasi yo'lida mardlik ko'rsatgan ***Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Shayx Najmiddin Kubro, Mahmud Tarobiy, Amir Temur*** kabi vatanparvarlarning jasorati bilan tanishasiz..

Mustahkamlash: Darsning ushbu qismida o'quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Eslab ko'ring-chi, qadimgi davrda O'zbekiston hududida qanday davlatlar bo'lgan?

2. Matnda keltirilgan “...mazkur hudud aholisining ijtimoiysiyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti rivojiga ta'sir ko'rsatgan” jumlasida qanday ta'sirlar haqida gap ketmoqda?

O'quvchilarni baholash: O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlari va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

Uyga vazifa: o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O'TIBDO': _____

Sana: “ ” _____ 201__-yil. Sinflar: 7-“ ”. O‘qituvchi: _____

MAVZU: Ijtimoiy-iqtisodiy O‘zgarishlar

DARSNING MAQSADI:

- a) **ta’limiy:** o‘quvchilarga ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar haqida ma’lumot berish;
- b) **tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;
- d) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishga erishish.

Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) **tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

b) **fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars uslubi: an’anaviy.

Dars jihozlari: darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)	Ajratiladigan vaqt (reglament)
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

DARSNING BORISHI:

Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma’naviyat daqiqasi: O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

Yangi mavzu bayoni: O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar. O‘z zamonasining buyuk davlatlari bo‘lgan Qang‘ davlati va Kushon podsholigi davrida Qadimgi Turon diyori yuksala boshlagan edi. Shaharlarning soni ko‘paydi va hududi kengaydi. Shahar ilk o‘rta asrlardan boshlab hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylangan. Vohalarda yirik sug‘orish tarmoqlari qazilib, sug‘orma dehqonchilik maydonlari kengaygan. Suv tegirmoni, chig‘ir va **charxpalak** kabi suv inshootlari kashf etilgan. Oqar suv sathidan birmuncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib obod etilgan. Mamlakatning dasht va tog‘oldi mintaqalarida yashovchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining o‘troq hayot tarziga

o'tishi kuchaygan. Oqibatda dehqonchilik uchun yaroqli sug'oriladigan yerlarga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib borgan. Buning natijasida qo'riq va bo'z yerlarga suv chiqarilib, kattakatta ekin maydonlari barpo etilgan.

Dehqonlar va ular xo'jaligidagi hayot. Qabila boshliqlari, ishboshilar o'zlariga tegishli yer maydonlarini sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa, to'g'on boshi atrofidan ajratib olganlar. Shu tariqa, ular ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaganlar. O'sha davrda ular **dehqonlar** deb atalgan. Dehqonlar shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do'kon-u rastalaridan iborat kattagina xo'jalikka ham ega bo'lganlar. Ko'pdan ko'p xizmatkorlar dehqonlarning xo'jaligida qishin-yozin mehnat qilganlar. Har bir katta yer egasining 30–40, 50–100 va ba'zan undan ortiq maxsus askarlar guruhi – **chokarlari** bo'lgan. Chokarlar baquvvat va abjir hamda o'z xojasiga sadoqatli o'spirinlardan tanlab olingan. Bunday sodiq va jangovar chokarlari bilan dehqonlar yov hujumi paytlarida dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashgan. Qishloqlarda dehqonlarning mavqeyi ortib, katta-katta yerlarga ega bo'lib oldilar. Bu esa o'z navbatida mamlakatning ijtimoiy hayotiga ta'sir o'tkazdi. Yer egaligining tarkib topishi oqibatida mamlakatning ijtimoiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qishloq jamoalari yerli mulkdor **dehqon** va unga qaram bo'lgan yersiz va erksiz **kadivar**larga ajralib borgan. Qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi **kashovar**lar deb atalardi. **V asrning o'rtalariga** kelib, garchi ekin yerlarining ma'lum bir qismi mulkdor dehqonlar qo'lida bo'lsa-da, ammo ziroatkor vohalardagi sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog'ida edi.

Mustahkamlash: Darsning ushbu qismida o'quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Nima deb o'ylaysiz, nega ilk o'rta asrlar davrida yuksalish boshlangan?

Bu yuksalish oqibatida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?

2. Ayting-chi, qishloqlar nufuzining ko'tarilishiga nimalar sabab bo'lgan?

O'quvchilarni baholash: O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlari va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

Uyga vazifa: o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O'TIBDO': _____

Ushbu Tarix 7-sinf konspektning *to'liq va fondagi yozuvlarsiz* variantini olish uchun



+998946281992 telegram raqamiga yoki
@mahmudov24 telegram adresiga xabar yozing

Narxi 20 000 so'm

To'lov FAQAT **click, payme** yoki **paynet*** orqali
BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI! Telefon qilinganda yoki sms
yuborilganda javob bermaslik ehtimoli yuqori

Qolgan sinf namunalari va boshqa hujjatlar bilan telegram kanalimiz yoki web saytda tanishingiz mumkin.



Telegram kanal: @uzmaktab

Web sayt: www.hasanboy.uz

* paynet telefon raqamiga emas